



O‘ZBEKISTON PREZIDENTI TURKIYA DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 26-iyun kuni amaliy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘lib turgan Turkiya milliy mudofaa vaziri Yashar Gyuler boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuv avvalida Turkiya mudofaa idorasi rahbari O‘zbekiston yetakchisiga Prezident Rejep Tayyip Erdog‘anning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Anqara shahriga 5-6-iyun kunlari amalga oshirilgan oliy darajadagi tashrif chog‘ida erishilgan kelishuvlarni hisobga olgan holda O‘zbekiston bilan Turkiya o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlari yanada chuqurlashtirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Harbiy va harbiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari, jumladan, yaqin idoralararo aloqalarni mustahkamlash, qo‘shma tadbirlar tashkil etish, harbiy mutaxassislarni tayyorlash va boshqa masalalar muhokama qilindi.

Xavfsizlik sohasida, terrorizm, ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashishda hamkorlikni mustahkamlash va muvofiqlashtirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta‘minlash, shu jumladan, Afg‘onistondagi vaziyat yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N I

MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN SOHA XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda so‘z va matbuot erkinligini rivojlantirish, xalqimizning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta‘minlash, davlat va jamiyat boshqaruvida ochiqlik va oshkoralik tamoyillarini mustahkamlash, demokratik islohotlarni amalga oshirish yo‘lida faollik ko‘rsatib kelayotgani, global axborot maydonida milliy manfaatlarimizni himoya qilish, yurtimizdagi yangilanish jarayonlarini yoritish, erishilayotgan yutuqlarni keng targ‘ib etishdagi katta xizmatlari, zamonaviy media tarmoqlari uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash borasidagi samarali faoliyati hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar mukofotlansin:

“Mehnat shuhrati” ordeni bilan

Taypatov Abdijalol Gapparovich — O‘zbekiston Milliy axborot agentligining hududiy axborot tahririyati bosh muharriri
Temirov Sobirjon G‘ulamovich — Beshariq tumani “Beshariq tongi” gazetasi bosh muharriri, Farg‘ona viloyati

“Do‘stlik” ordeni bilan

Abdusamatova Mukaddas Salixovna — O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi va Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, publitsist
Beknazarova Saodat Uzbekovna — “Ovozi tojik” gazetasi katta muxbiri

Djurayeva Dilfuza Djangirovna — O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a‘zosi, publitsist, Surxondaryo viloyati
Klyaskiy Grigoriy Nikolayevich — “Ishonch-Doveriye” gazetasi bo‘lim muharriri

Levchenko Sergey Vladimirovich — “Narodnoye slovo” gazetasi bo‘lim muharriri
Nugmanov Ravshan Yakubdjanoich — O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Toshkent radioeshittirish uyi ovoz yozish xizmati rejissyori

Ochilov Qudrat Mengliyevich — “Bir safda” jurnali mas‘ul kotibi

Paluanova Mnyim Pirnazarovna — “Nukus-Sayahat” mas‘uliyati cheklangan jamiyatining “Jaslar-TV” telekanali va “Nukus-FM” radiosi direktori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Sodikov Ikrom Mamadaliyevich — O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Namangan viloyati teleradiokompaniyasi direktori o‘rinbosari

Toxirov Xalimjon Turgunovich — “Andijonoma” va “Andijanskaya pravda” gazetalari tahririyatining “Andijonoma.uz” internet nashri muharriri

Xakimov Talib Adilovich — Nurafshon shahri “Mash‘al” gazetasi bosh muharriri, Toshkent viloyati

II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan

Boymirzayeva Saodat Urakovna — O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotinqizlar qo‘mitasining matbuot kotibi

▶ Davomi 2-betda

marraga yetish oson emasligi, bu yo‘lda to‘siq va qiyinchiliklar bo‘lishi tabiiydir.

Lekin, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu boradagi ishlarimizni qat‘iyat bilan davom ettiramiz.

Muhtaram do‘stlar!

Bugungi kunda matbuot ishi, jurnalistlar faoliyati nafaqat “to‘rtinchi hokimiyat”, balki mudofaa, xavfsizlik kabi hal qiluvchi sohaga aylanib bormoqda.

Bu esa mazkur yo‘nalishda aynan sizlardek jasur va dovyurak, Vatanni chin dildan sevadigan, o‘z kasbiga sodiq va fidoyi insonlar tobora ko‘proq bo‘lishini taqozo etmoqda.

Ana shu talabdan kelib chiqqan holda, ko‘p qirrali professional bilim va malakaga, yuksak ma‘naviy-intellektual fazilatlariga ega bo‘lgan zamonaviy jurnalist kadrlar tayyorlash bundan buyon ham ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi.

Shu bilan birga, axborot maydonini sifatli va raqobatdosh milliy kontent bilan to‘ldirish masalasi har qachongidan ham dolzarb bo‘lib borayotgani barchamiz uchun ayon haqiqatdir.

Shu bois, dunyoda yuz berayotgan voqea-hodisalarni milliy manfaatlarimizni hisobga olgan holda, tezkor va chuqur tahlillar asosida yoritib borish o‘ta muhim, deb o‘ylayman.

Shuningdek, bugungi kunda yolg‘on va asossiz ma‘lumotlarni tarqatish orqali odamlarni aldash, to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘itish holatlari ko‘payib borayotgani aholining media savodxonligini oshirishni oldimizga kechiktirib bo‘lmaydigan vazifa qilib qo‘ymoqda. Axborot maydonida yuzaga kelayotgan bahsli tortishuv va muammolar faqat va faqat qonun doirasida, huquqiy me‘yorlar negizida hal etilishi shart.

Siz, hurmatli media tarmoqlari vakillari ana shunday masalalarni hal etishda faol ishtirok etasiz, deb ishonaman.

Albatta, sohada xizmat qilayotgan barcha yurtdoshlarimizning qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, ularning mashgaqatli mehnatini rag‘batlantirish masalalari bundan buyon ham e‘tiborimiz markazida bo‘ladi.

Ushbu quvonchli ayyomda sizlarni qutlug‘ kasb bayramingiz bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, sharaflil faoliyatingizda yangi yutuq va omadlar, xonadonlaringizga tinchlik va fayz-u baraka tilayman.

Fursatdan foydalanib, bugungi bayram munosabati bilan yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlangan ommaviy axborot vositalari xodimlarini chin dildan qutlayman.

Izlanish va ilhom zavqi, yangi ijodiy yutuqlar sizlarga hamisha yor bo‘lsin, azizlar!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Taraddud

ZOMIN ZAMINI UZRA TARALAR MUMTOZ NAVO

Bugun II Xalqaro maqom san’ati anjumani ochiladi

O‘zbek milliy maqom san’atini asrab-avaylash va rivojlantirish, noyob namunalarini keng targ‘ib etish, yosh avlod qalbida san’atga mehr-muhabbatni kamol toptirish, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, birodarlik rishtalarini mustahkamlash, madaniy-ma‘naviy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda kengaytirish, jahon hamjamiyatida maqom san’ati nufuzini yanada oshirish, shuningdek, navbatdagi Xalqaro maqom san’ati anjumaniga har tomonlama puxta tayyorgarlik ko‘rish va yuksak saviyada o‘tkazish maqsadida Prezidentimizning 2019-yil 26-fevraldagi “II Xalqaro maqom san’ati anjumanini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoyishi imzolangan edi.

▶ Davomi 2-betda

27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni



XALQ MANFAATLARINING FAOL HIMOYACHISI

POYTAXTIMIZDA 27-IYUN — MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI
XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN TANTANALI TADBIR BO‘LIB O‘TDI



Tadbirda vazirlik va idoralar, jamoat tuzilmalari, xalqaro tashkilotlarning vakillari, ommaviy axborot vositalari xodimlari, faxriy jurnalistlar, oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, yosh ijodkorlar taklif etildi.

▶ Davomi 3-betda

2024-yil 27-iyun, 126-son

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N I

MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT
VOSITALARI XODIMLARI KUNI
MUNOSABATI BILAN SOHA
XODIMLARIDAN BIR GURUHINI
MUKOFOTLASH TOʻGʻRISIDA

Boshlanishi 1-betda

Muminov Fayzullo Abdullayevich — Oʻzbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining jamoatchilik bilan aloqalar kafedrası professori

Xasanova Zaxro Tulkunovna — “Gulxan” jurnali bosh muharriri

“Sogʻlom turmush” medali bilan

Imomxoʻjayev Zafar Axbarovich — Oʻzbekiston Milliy olimpiya qoʻmitasi raisining axborot siyosati masalalari boʻyicha maslahatchisi — matbuot kotibi

“Kelajak bunyodkori” medali bilan

Abduraximov Muslimbek Fozil oʻgʻli — “Zoʻr TV” telekanalining “Bu kun” informatson dasturi rahbari

“Shuhrat” medali bilan

Abdukadirov Dilshod Axmedjanovich — “Kun.uz” internet nashri bosh muharriri

Abduraxmanova Feruza Abduganiyevna — “Mening yurtim” telekanali boshlovchisi

Abidov Aziz Agzamovich — Oʻzbekiston Respublikasi Olii sudining Jamoatchilik bilan hamkorlik markazi boshligʻi — matbuot kotibi

Alimuxamedov Tuygun Vaxabovich — “Oʻzbekiston koʻzi ojizlar boshmaxonasi” davlat unitar korxonasi muqovalovchisi

Bazarov Baxriddin Xaydarovich — “Akademnashr NMM” masʼuliyati cheklangan jamiyati bosh rassomi

Bayturayeva Guljamal Orinbasarovna — “Nurlı jol” gazetasi boʻlim mudiri

Voxidova Nozima Raximovna — Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Madaniyat va maʼrifat telekanali” davlat muassasasi kino-videomahsulotlar va tezkor dublyaj muharririya katta muharriri

Gulyamova Dilfuza Izzatovna — “Yangi Oʻzbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririya tining Navoiy viloyati boʻyicha maxsus muxbiri

Oʻzbekiston Respublikasi
Prezidenti

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 25-iyun

Dil izhori

EL ARDOGʻIDA BOʻLISH ZAVQI

Muqaddas ABDUSAMATOVA,
Oʻzbekiston Jurnalistlar
uyushmasi aʼzosi,
“Doʻstlik” ordeni sohibi

Koʻpincha meni yaqindan bilganlar “yoshi 80 dan oshgan ayolga oʻxshamaysiz, gʻayratingiz joʻshadi-yu”, deb aytadi. Axir gʻayratim qanday joʻshmasin? Davlatimiz rahbari eʼtibori va ardogʻi orqali bizga kuch-quvvat bagʻishlab, jamiyat hayotidagi jarayonlarga daxldor boʻlishga daʼvat etib turgan bir pallada keksalikni boʻyinga oladigan anoyi yoʻq.

Bir umr ilm, odamlarga yaxshilik qilish yoʻlida duch kelgan qiyinchiliklarni yengib, doim oldinga qarab intiladigan, ezgu maqsadda charchash nimaligini bilmay, el olqishiga erishgan insonlar qurshovida boʻldim. Ularning hayoti, kechinmalari, qahramonliklari haqida maqolalar yozdim. Sheʼr va hikoyalarni orqali hayot mazmunini anglash, taʼmini totish, tiriklik, degan neʼmatga munosib boʻlishni tarannum qildim.

Oltmish yildan ziyod muddat jurnalistika nonini yedim. Kechagi shogirdlarim bugun ustoz darajasiga erishdi. Demak, mehnatim zoye ketmabdi. Shogirdlarim turli bayram, tavallud kunlarimda yoʻqlaydi. Xonadonimda mehmon boʻlib, shirin xotiralarni eslatadi. Faxriy jurnalist sifatida doim ular ardogʻidaman. Bu — katta maqom. Kasbim tufayli koʻp eʼtirofga sazovor boʻldim. Bugun davlatimizning yuksak mukofoti — “Doʻstlik” ordeni bilan taqdirlanganim hammasidan qadrlisi.

Prezidentimizning “Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlaridan bir guruhini mukofotlash toʻgʻrisida”gi farmonida men bilan birga koʻplab

Djmalov Kaxramon Djumayevich — Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Oʻzbekiston 24” telekanali muharrirlar guruhi bosh muharriri

Djumaboyeva Raxima Mustafayevna — Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Sirdaryo viloyati teleradiokompaniyasi televideniye guruhi katta muharriri

Zokirova Tursuntosh Normurodovna — Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Jizzax viloyati teleradiokompaniyasi radio guruhi muxbiri

Inoyatova Nazira Saypullayevna — “Avto-radio” radiosi dasturlar boʻyicha direktori va efir boshlovchisi

Klichbayev Abatbay Reimbayevich — Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasining qoʻlyozmalar, noyob va alohida qiymatga ega nashrlar xizmati rahbari

Matchanova Intizor Jumaboyevna — Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Oʻzbekiston 24” telekanali Xorazm viloyati boʻyicha muxbiri

Murotova Muslima Kamolidinovna — Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Oʻzbekiston” radiokanali rejissyorlar guruhi suxandoni

Niyazov Norbek Ramazanovich — Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Oʻzbekiston 24” telekanali yangiliklar muharririya bosh muharriri

Pirnafasova Muhayyo Rustamovna — “Jadid” gazetasi adabiy muharriri

Saidov Sherodil Xudayberdiyevich — “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasining chop etish sexi ustasi

Sulaymanova Aliya Ismailovna — “Darakchi.uz” internet nashri bosh muharriri

Sulaymonov Shodmon Sultonovich — “Buxoronoma” va “Buxarskiy vestnik” gazetalari tahririya bosh muharriri, Buxoro viloyati

Shamsiddinov Yulqin Xakimovich — Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati huzuridagi Media-markazi yetakchi mutaxassisi

Eshonqulov Zamon Asrorovich — Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Samarqand viloyati teleradiokompaniyasi televideniye guruhi maxsus muxbiri

Yusupov Ahmad Mengnimuratovich — “Daryo.uz” internet nashri bosh muharriri



hamkasb va shogirdlarimning ism-familiyasi bor. Ularning har biri eʼtirofga munosib. Ular safida borligim esa baxtimdir.

Mamlakatimizda soʻz va matbuot erkinligini mustahkamlash, xalqimizning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini taʼminlash, davlat hamda jamiyat boshqaruvida ochiqlik va oshkoralik tamoyillarini qoʻllab-quvvatlash, demokratik islohotlarni roʻyobga oshirish yoʻlida faollik koʻrsatib kelayotganlar qatorida ekanimdan faxrdaman.

Farmondagi “Global axborot maydonida milliy manfaatlarimizni himoya qilish, yurtimizdagi yangilanish jarayonlarini yoritish, erishilayotgan yutuqlarni keng targʻib etishdagi katta xizmatlari, zamonaviy media tarmoqlari uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash borasidagi samarali faoliyati hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun”, degan eʼtirof esa menga yanada koʻp kuch, gʻayrat va shijoat beradi.

Taraddud

ZOMIN ZAMINI UZRA
TARALAR MUMTOZ NAVO

Bugun II Xalqaro maqom sanʼati anjumani ochiladi

Boshlanishi 1-betda

Unga koʻra, Xalqaro maqom sanʼati anjumanini ikkinchi marta 2020-yil sentyabrining birinchi yarmida oʻtkazish yuzasidan Madaniyat vazirligi, Oʻzbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi hamda Qashqadaryo viloyati hokimligining taklifi maʼqullangan, biroq pandemiya tufayli boshqa muddatga qoldirilgandi.

Navbatdagi anjumanga soʻlim tabiati bilan mashhur Zomin tumani mezbonlik qiladigan boʻldi. Shu yil 27-30-iyun kunlari Jizzaxda UNESCO va ICESCO shafeligida II Xalqaro maqom sanʼati anjumani oʻtkaziladi. Mumtoz navolar bayramida 80 ga yaqin davlatdan 400 dan ortiq ishtirokchi qatnashishi kutilmoqda.

Xalqaro hayʼat koʻrik-tanlov ishtirokchilarining chiqishini “Eng yaxshi maqom ansambli”, “Eng yaxshi yakkaxon cholgʻu ijrochisi” va “Eng yaxshi yakkaxon xonanda” nominatsiyasi boʻyicha baholaydi. Koʻrik-tanlov gʻoliblari diplom, statuetka va pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

professor Soibjon Begmatov. — Yoshlar orasida maqom ijrochiligi mahoratini egallash istagidagi isteʼdodlilar koʻpaya boshladi. Shu bois, bu yilgi anjumanda shashmaqom, Xorazm maqomi va Fargʻona-Toshkent

BUTUNJAHON YOSHLAR FESTIVALI
“BOQIY SHAHAR”DAN BOSHLANDI

Yoshlar oyligi doirasida 26-30-iyun kunlari mamlakatimizda ilk bor Butunjahon yoshlar festivali oʻtkazilmoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan festivalda sayyoramizning 92 davlatidan 700 nafardan ziyod yoshlar ishtirok etmoqda. Ular Toshkent shahri, Samarqand, Buxoro, Jizzax va Xorazm viloyatlarida tadbir doirasidagi 15 ta loyihada oʻz gʻoya va tashabbuslari bilan qatnashib, tajriba almashmoqdalar.

Samarqanddagi xalqaro turizm markazi “Boqiy shahar” majmuasida 26-iyun kuni festivalning tantanali ochilish marosimi boʻlib oʻtdi. Unda Oʻzbekiston Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Saʼdullayev soʻzga chiqib, festival ishtirokchilarini yurtimizga tashrifi bilan qutladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlar siyosati, yosh avlodning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida soʻz yuritdi.

Festivalning dastlabki kunida Samarqandda Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Saʼdullayev bir qator davlatlarning yoshlar ishlari boʻyicha masʼullari bilan uchrashuvlar oʻtkazdi.

Muloqotlarda yoshlar huquq va manfaatlarini himoya qilish, hamkorlikda

turli loyihalarni amalga oshirish bilan bogʻliq masalalar muhokama qilindi.

Festivalning yalpi majlisida ham oʻzbekistonlik yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar, bu boradagi qonunchilik, turli ijtimoiy loyihalar haqida batafsil maʼlumot berildi.

Xorijlik yoshlar samarqandlik yigit-qizlar hamrohligida “Boqiy shahar”ni koʻzdan kechirdi. Milliy hunarmandlik mahsulotlari, milliy taomlar tayyorlash jarayonlariga guvoh boʻlishdi.

ittifoqi hamda Yoshlar ishlari agentligidir. Bu tashkilotlar tashabbusi bilan koʻplab loyihalar amalga oshirilmoqda. Birgina “Yosh kitobxon” tanloviga shu paytgacha 4 million 700 ming nafardan ziyod yigit-qiz qamrab olindi va ularning 20 nafariga Prezident sovgʻasi sifatida avtomobil berildi. Mahallalarning har birida “Yoshlar daftari” yuritiladi va unda turli ijtimoiy muammolari boʻlgan yoshlar qayd etilib, ularning jamiyatda oʻz oʻmini topishi uchun davlat tomonidan zarur yordam koʻrsatiladi.

Tadbirda bir qator davlatlarning yoshlar ishlari boʻyicha vazirlari, yoshlar tashkilotlari rahbarlari ham soʻzga chiqib, festivalning yuksak saviyada tashkil

— Mamlakatimizda yoshlarni birlashtirish, ularning iqtidorini yuzaga chiqarishga xizmat qiladigan ikki tashkilot faoliyat koʻrsatmoqda, — deydi Alisher Saʼdullayev. — Ular Oʻzbekiston yoshlar

etilgani uchun mamlakatimiz rahbariyatiga minnatdorlik bildiradi.

Festivalning dastlabki kunida “Ommalashtirishga arzigulik gʻoyalarni kashf eting!” mavzusida yuzma-yuz uchrashuv va davra suhbatlari, shuningdek, milliy taomlar koʻrgazmasi oʻtkazildi.

— Qozogʻistondagi “Mehribonlik” koʻngillilar jamiyati vakiliman, — deydi Yekaterina Toʻxtarova. — Tashkilotimiz 20 yildan buyon faoliyat yuritib keladi va imkoniyati cheklangan fuqarolarga turli shakllarda yordam beramiz, shuningdek, sport va ijodiy toʻgaraklar tashkil etganmiz. Festivalda yangi doʻstlar orttirishni, ular bilan gʻoyalar almashishni maqsad qilganmiz. Men bilan birgalikda Qozogʻistonning 50 nafarga yaqin yoshlar vakillari Samarqandga keldi, ularning har biri jamiyatning u yoki bu yoʻnalishi rivojiga oʻz hissasini qoʻshib kelmogʻda.

Xorijlik yoshlar samarqandlik yigit-qizlar hamrohligida “Boqiy shahar”ni koʻzdan kechirdi. Milliy hunarmandlik mahsulotlari, milliy taomlar tayyorlash jarayonlariga guvoh boʻlishdi.

Festivalda taʼlim, innovatsiya, raqamli texnologiyalar, biznes, media, madaniyat, sanʼat, sport kabi yoʻnalishlarda seminar va uchrashuvlar oʻtkazilishi va undan nufuzli spikerlar qatnashishi rejalashtirilgan.

Gʻolib HASANOV,
OʻZA muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni

Biz mamlakatimizda so‘z va matbuot erkinligini, axborot olish va uni tarqatish huquqini ta‘minlash masalasini inson qadrini ulug‘lash, demokratik jamiyat va xalqparvar davlat qurishga qaratilgan taraqqiyot strategiyamizning muhim va ajralmas qismi deb bilamiz.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

TURMA – YUGUR, TINMA – TIRISH, BUKILMA – YUKSAL...



Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Qanoti bor maqolalar va gazeta hidi

Bugun yurtimizda keng nishonlanayotgan Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni nafaqat o‘z hayotini shu sohaga bag‘ishlagan fidoyi insonlar, balki ularning mashaqqatli ijod va mehnat mahsulidan bahramand bo‘ladigan ko‘p sonli mushariytlar, butun jamiyatimiz uchun ham qadrlidir.

Ommaviy axborot vositalari deganda, asosan, gazeta-jurnal, televideniye, radio va internet saytlari ko‘z oldimizga keladi. Tabiiyki, hamkasblarimiz ham mavzu bo‘yicha qalam tebratganda qaysi yo‘nalishda faoliyat yuritish, shu tomonga chuqurroq kiradi, kerak bo‘lsa, yon bosadi. Masalan, TV jurnalistlari sohaning mashaqqatli haqida so‘z ketganda, studiya hayotidan gapiradi, radiochilar efir zahmati va mas‘uliyatidan gap ochadi. An‘anadan chekinmay, biz ham bir oz o‘zimizning gazetachilik faoliyatimiz haqida qisqa mushohada etishni niyat qildik.

Gazetaning asosi — maqola. Maqola arabcha “qola” (aytdi) so‘zining o‘zagidan yasaliib, nutq, adabiy insho ma‘nosini anglatadi. Demak, jurnalist, qalamkash o‘z so‘zi bilan biror muhim mavzu yoki muammoga e‘tiborni qaratib, odamlarga murojaat qiladi. O‘zgina iroda namoyon etib, mehnat qilinsa, bunga erishiladi. O‘quvchi ham jurnalistdan ma‘noli gap kutadi.

Faqat bosma nashr jurnalistlari tushunadigan, faoliyati davomida ko‘p ishlatadigan bir ibora bor: maqola “uchib” ketibdi (ketdi). Bu gap ishini tugatib, uyga ketayotgan paytingiz sahifada turgan maqola o‘rinda ertalab bosmaxonadan kelgan gazetada boshqa material paydo bo‘lib qolgan hollarda aytiladi. Agar oqshom maqolaga taalluqli muallif yoki qahramonni suyuqchilab qo‘ygan bo‘lsangiz, ana xijolatbozlik!

Ancha yil avval elimiz suygan san‘atkor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist (hozir xalq artisti) Erkin Komilov bilan gazeta uchun jiddiy mavzularni qamrab olgan suhbat tayyorladik. Maqola sahifalandi, muallif sifatida o‘qib, kerakli tuzatishlarni kiritib, kech bo‘lganda tahririyatdan chiqdim. Metroga kiraverishda o‘matilgan avtomat telefonda Erkin akingan uyiga qo‘ng‘iroq qildim. U ham endi kelib turgan ekan, go‘shakni o‘zi ko‘tardi.

— Juda yaxshi ish bo‘libdi-da, — dedi maqola chiqayotganidan xursand bo‘lib. — Uyingiz manzolini aytasangiz, ertalab olib ketaman. Ishxonangizga birga boramiz, 2-3 ta gazeta olib qaytaman.

Soa 9 atrofida tahririyatga yetib bordik. Gazetani olib, mamnun holatda so‘nggi sahifani ochib, Erkin akaga ko‘rsataman desam, umuman boshqa maqola berilgan. “Ie, maqola uchib ketibdi-ku”, dedim beixtiyor. Gazetachilikda bunday vaziyat bo‘lib turishini tushuntirgunimcha terlab ketdim. Keyin surishtirsam, qaysidir spektaklning sahnalashtirilgan yili navbatchida shubha uyg‘otibdi. Men bilan bog‘lanay desa, eski shahardagi uyimda (u paytlar internet va mobil aloqa hali rivojlanmagan) telefon yo‘q. Tinchgina maqolani olib qo‘yishibdi. Maqola navbatdagi sonda chop etildi, gazetani o‘zim aktyorga yetkazdim. Darvoqe, navbatchining gumoni ham to‘g‘ri ekan, sanadagi xatolik tuzatib qo‘yildi.

Gazetadagi maqolaning mas‘uliyati naqadar zalvarli ekanini anglagandirsiz. Muallif, bo‘lim mudiri, adabiy kotib, bosh muharrir o‘rinbosari va bosh muharrir, qolaversa, o‘sha songa navbatchilik qiladigan jurnalist har bir so‘z, jumla, fikr, raqam, ma‘lumotga ana shunday jiddiy yondashadi. Hozir mutolaa qilib turganingizdek bekam-u ko‘st gazeta ana shunday shakllanadi. Bu jarayon katta tajriba, e‘tibor, qunt, zakovat va hushyorlik talab qiladi. Lekin nima bo‘lganda ham qalam ahli uchun yangi chop etilgan gazeta qo‘lga olinganda undan keladigan bosmaxona — matbaa bo‘yog‘ining hidi qadrlidi. Gazetaning hidi barcha zahmatlarni bir zumda aritib yuboradi.

“Aytmasang — kim biladi, ochmasang — kim ko‘radi”

Davlatimiz rahbari o‘z lavozimiga kirishgan ilk damlardan boshlab to shu kungacha nutqlarida jurnalistlar haqida ko‘p to‘xtaladi. Viloyatlar bo‘ylab safarlarda ham jurnalistlar bilan muntazam muloqot qiladi. O‘zbekistonda barcha siyosiy huquqlar qatorida vijdon va e‘tiqod erkinligi kafolatlari so‘zsiz ta‘minlanishi, so‘z va matbuot erkinligi, fuqarolarning axborot olish, undan foydalanish va tarqatishga bo‘lgan huquqlarini kafolatlash haqida alohida aytib keladi.

Jurnalistlarning asosiy vazifasi aholiga axborot yetkazish, ma‘lumotlarni ochiqlashdan



iborat. Qonunchilikka ko‘ra, mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari erkindir. Har kim, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, ommaviy axborot vositalarida chiqish, o‘z fikri va e‘tiqodini oshkora bayon etish huquqiga ega. Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyati va axborotdan foydalanish erkinligini, mulk huquqini davlat organlarining g‘ayriqonuniy qarorlaridan, ular mansabdor shaxslarining nojoiz harakatlardan (harakatsizligidan) himoya qilinishini kafolatlaydi.

Jurnalistlar faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki aralashish taqiqlanadi. OAV qonunchilikka muvofiq axborotni izlash, olish, tadqiq etish, tarqatish, foydalanish, saqlash huquqiga ega hamda tarqatilayotgan axborotning xolisligi va ishonchliligi uchun belgilangan tartibda javobgar.

Dunyo matbuotida “Axborot — demokratiyaning asosiy valyutasi. So‘z erkinligisiz demokratiya ham, inson erkinligi ham bo‘lmaydi”, degan qarash mavjud. Ushbu tamoyil o‘zining bo‘y-bastini matbuotimiz sarhadlarida ham namoyon etayotgani quvonarli hol, albatta.

— Jamiyatimizda haqiqatni aytadiganlar shu el, yurning dushmani emas, to‘sti ekanini haqidagi fikr qaror topishi kerak. Kerak bo‘lsa, faqat ziyoli qatlam emas, har bir dehqon-femerimiz, haydovchimiz siyosat nimaligini, referendum nimaligini bilsin. Partiyalar faoliyati haqida bahslashsin, — deydi Respublikada xizmat ko‘rsatgan jurnalist Jabbor Razzoqov. — Abdurauf

Fitratning bir gapi bor: “Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quruli: sog‘lom jismu tan, o‘tkir aql va yaxshi axloqdirl!”. Ushbu jihatlar jurnalistlar faoliyatiga ham taalluqli. Zero, axborot maydonida javlon urish kurashlardan iborat. Bunda sog‘lom, o‘tkir zakovat va axloq muhim sanaladi.

Erkin fikr minbari

Keyingi yillarda yurtimizda ro‘y berayotgan tarixiy o‘zgarishlar natijasida ommaviy axborot vositalarini erkin fikr minbariga, xalqimiz manfaatlarining faol himoyachisiga aylantirish uchun mustahkam huquqiy zamin, ijtimoiy muhit yaratildi.

Hozir yurtimizda 2140 ta yoki 2016-yildagidan 626 ta ko‘p ommaviy axborot vositasi faoliyat yuritmoqda. Ularning 65 foizi nodavlat media vositalari ekanini sohada tarkibiy o‘zgarishlar kechayotganidan dalolat beradi. An‘anaviylar bilan birga internet nashrlar ham jadal rivojlanib, ularning soni 745 taga yetdi va o‘quvchilar ommasini tobora ko‘proq o‘ziga jalb etayotgani ham bor gap.

Davlatimiz rahbari o‘tgan yili soha xodimlariga kasb bayrami munosabati bilan yo‘llagan tabrigida bunday degan edi: “Mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari xalqaro axborot makoniga ham dadil kirib bormoqda. O‘zbekiston Milliy teleradio-kompaniyasi hamda bir qator xususiy

telestudiyalarning ko‘rsatuvlari jahonning 100 dan ortiq davlatlariga uzatilmoqda. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, “Dunyo” axborot agentligi o‘z xabarlarini 10 ta xorijiy tilda tarqatmoqda”.

Darvoqe, davlatimiz rahbari har yili Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan soha vakillaridan bir guruhini mukofotlashi yaxshi an‘anaga aylangan. Kecha ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining shu haqdagi farmoni e‘lon qilindi.

Unga ko‘ra, mamlakatimizda so‘z va matbuot erkinligini rivojlantirish, xalqimizning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta‘minlash, davlat va jamiyat boshqaruvida ochiqlik va oshkoralik tamoyillarini mustahkamlash, demokratik islohotlarni amalga oshirish yo‘lida faollik ko‘rsatib kelayotgani, global axborot maydonida milliy manfaatlarimizni himoya qilish, yurtimizdagi yangilanish jarayonlarini yoritish, erishilayotgan yutuqlarni keng targ‘ib etishdagi katta xizmatlari, zamonaviy media tarmoqlari uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash borasidagi samarali faoliyati hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun bir guruh hamkasblarimiz, ustozlarimiz orden va medallar bilan mukofotlandi.

Quvonarlisi, taqdirlanganlar orasida hamkasbimiz — “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda

Vostoka” gazetalar tahririyatining Navoiy viloyati bo‘yicha maxsus muxbiri Dilfuza Gulyamova ham bor. U “Shuhrat” medaliga munosib ko‘rildi. Fursatdan foydalanib, Dilfuzaxon hamda boshqa hamkasblarimizni mehnati munosib taqdirlangani va yuksak e‘tirofga sazovor bo‘lgani bilan chin qalbimizdan samimiy tabriklaymiz. Mas‘uliyatli ishlariga rivoj, sog‘liq-omonlik tilaymiz.

Biz dunyo bilan bo‘ylasha olamiz

Bugungi shiddatli davmning o‘zi barcha sohalar qatori axborot yo‘nalishida ham oldimizga o‘ta dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Mamlakatimizda hozir O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteti, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Qoraqalpog‘ davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti kabi ta‘lim muassasalarida jurnalistika yo‘nalishi bo‘yicha yuzlab mutaxassislar tayyorlanadi.

Mana, bir necha yildirki, poytaxtimizdagi oliy ta‘lim muassasalarida saboq olayotgan talabalar — bo‘lg‘usi hamkasblarimiz “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalar tahririyatida amaliyot o‘tashi yaxshi an‘anaga aylandi. Ko‘zida o‘t, qadamida shijoat bo‘y ko‘rsatib turgan bir necha yoshlar jamoamiz a‘zodek bo‘lib ketdi. Tashabbuskor, sohaga qunt qilgan yosh ijodkorlar o‘z maqolalari, videolavhalar, fotosuratlar bilan gazetamiz, elektron saytimizni shakllantirishda faollik ko‘rsataypti. Ertaga dunyo bilan bo‘ylasha oladigan milliy matbuotimiz vakillari bo‘lib yetishishi uchun ularni qo‘llab-quvvatlashga hozir-u nozir bo‘lgan ustozlari yuzini yorug‘ qilyapti.

Dunyoda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar, mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyati bilan xalqimizni keng tanishtirishda, real hayotni ko‘zguda aks etgandek ko‘rsatib berishda ommaviy axborot vositalarining o‘mi va ahamiyati beqiyos, — deydi O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi Aziza Sharofiddinova. — Jurnalist ziyoli, teran fikrlovchi, tashkilotchi, kerak bo‘lsa iqtisodchi bo‘lishi kerakligini tushunmayman. U o‘tkir qalami, xolis so‘zi bilan siyosiy-ijtimoiy jarayonlar, voqealar haqida jamoatchilik fikrini shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Yana angladimki, jurnalistika sohasi vakili kuniga 24 soat, yilda 12 oy faol, zamonaviy tilda aytak, onlayn holatida bo‘lishi shart ekan. Bu meni cho‘chitmad, qaytaga tanlagan kasbimga mehrim ortdi.

Ha, axborot olish, uni keng ommaga taqdim qilish, yetkazishda fidoyi jurnalistlarning xizmati katta. Ana shunday mashaqqatli va sharaflil kasb egalari bayrami har yili 27-iyun kuni keng nishonlanib kelinaypti. Bu sana bejiz olinmagan. Yurtimizda chinakam milliy matbuotning yuzaga kelishi shu sana bilan bog‘liq. 1906-yil xuddi shu kundan xalqni madaniyat va ma‘rifatga da‘vat etuvchi, milliy uyg‘onish ruhida, o‘zbek tilida “Taraqqiy” gazetasi chiqq boshlagan. Uning tavallud kunini bayram sifatida nishonlash o‘tmish milliy matbuotimizga ehtirom ramzi va mustaqil davlatimiz matbuotiga e‘tibor ifodasi bo‘lib qoladi. “Turma — yugur, tinma — tirish, bukilma — yuksal”, degan jiddi bobomiz ovozi da‘vat bo‘lib xizmat qiladi.

XALQ MANFAATLARINING
FAOL HIMOYACHISI

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga bayram tabrigini Prezident matbuot kotibi Sherzod Asadov o‘qib eshittirdi.



Davlatimiz rahbarining “Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlariga bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi

farmoni kasb bayramiga o‘zgacha shukuh bag‘ishladi. Unga ko‘ra, bir guruh ommaviy axborot vositalari xodimlari Vatanimizning yuksak unvonlari, orden va medallari bilan taqdirlandi. Ularga mazkur mukofotlarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva tantanali tarzda topshirdi.

Tadbirda qayd etilganidek, keyingi yillarda yurtimizda ro‘y berayotgan tarixiy o‘zgarishlar natijasida ommaviy axborot vositalarini erkin fikr minbariga, xalqimiz manfaatlarining faol himoyachisiga aylantirish uchun mustahkam huquqiy zamin, ijtimoiy muhit yaratildi. Milliy matbuotimiz va ommaviy axborot vositalarini yanada erkinlashtirish, jurnalistlarning samarali ijod qilishi, so‘z erkinligini amalda ta‘minlash bo‘yicha tizimli ishlar olib borildi.

Bu borada yaratilgan milliy qonunchilik bazasi doimiy takomillashtirilish, jurnalistlarning erkin va hech qanday monelik-larsiz ma‘lumot olishi, xolis va haqqoniy, tezkor axborot tarqatishi uchun zarur barcha

sharoit va imkoniyatlar ko‘lami tobora kengayib bormoqda.

Prezidentimizning tabrigida ta‘kidlanganidek, “...Bugungi kunda yolg‘on va asossiz ma‘lumotlarni tarqatish orqali odamlarni aldash, to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘itish holatlari ko‘payib borayotgani aholining media savodxonligini oshirishni oldimizga kechiktirib bo‘lmaydigan vazifa qilib qo‘ymoqda. Axborot maydonida yuzaga kelayotgan bahsli tortishuv va muammolar faqat va faqat qonun doirasida, huquqiy me‘yorlar negizida hal etilishi shart”.

Shu ma‘noda, mamlakatimizda media tuzilmalar uchun yuqori bilim va salohiyatga ega kadrlarni tayyorlash, ularni qayta o‘qitish va malakasini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jurnalistlarning xorijiy hamkasblari bilan o‘zaro tajriba almashishi, jahon media tuzilmalarining ilg‘or faoliyat amaliyotini o‘z ishiga joriy etish borasida ko‘plab sa‘y-harakatlar amaliyotda bo‘y ko‘rsata boshladi.



— Hozir jahon arenalarida o‘z so‘zini aytish salohiyatiga ega, xorijiy tillarni puxta biladigan va ijod qila oladigan, zamonaviy talablar asosida faoliyat yuritadigan jurnalistlarga ehtiyoj katta, — deydi O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining jamoatchilik bilan aloqalar kafedrasini professori, II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni sohibi Fayzullo Mo‘minov. — Jamiyatda, qolaversa, dunyo sahnasida kechayotgan voqea va hodisalarga eng birinchi bahoni jurnalist berar ekan,

demak, yetuk kadrlar masalasi ham dolzarb. Biz endi jurnalistlarni ana shu rakursda turib tayyorlashga ahamiyat qaratishimiz lozim. Jahonda ro‘y berayotgan voqea va hodisalar bizzdan yanada ogoh va mas‘uliyatli, ro‘y berayotgan jarayonlarga nisbatan xolis bo‘lmog‘imiz lozimligiga ishora qilaypti.

Tadbirda san‘at ustalari va ijrochi yoshlar ishtirokida katta konsert dasturi namoyish etildi.

N. QOBILJONOV

Ogohlik

GIYOHVANDLIK VOSITALARI

Davlat xavfsizlik xizmati tashabbusi bilan noqonuniy muomaladan musodara qilingan 2 tonna 158 kilogramm giyohvandlik vositalari yoqib yuborish yo'li bilan yo'q qilindi.

YO‘Q, QILINDI

Ana shu maqsadda joriy yil 6-may kuni davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta'sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni qabul qilindi.

Farmon bilan O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha 2024-2028-yillarga mo'ljallangan milliy strategiya tasdiqlandi. Unda belgilangan vazifalar ijrosini hayotga keng tatbiq etish bo'yicha amaliy ishlar qilinmoqda.

Shuningdek, 2024-yil 4-iyun kuni BMT Bosh Assambleyasi O‘zbekiston tashabbusi bilan ishlab chiqilgan Markaziy Osiyo davlatlarining giyohvandlik bilan bog'liq muammolarini samarali hal etish va bartaraf etish uchun yagona front bo'lib harakat va hamkorlik qilishga tayyorligi to'g'risidagi rezolyutsiyani qabul qildi.

Narkotiklarni nazorat qilish milliy markazi hamda mutasaddi vazirlik va idoralar hamkorligida ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasi va BMT Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi o'rtasidagi 2022-2025-yillarga mo'ljallangan ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha “yo'l xaritasi” doirasidagi tadbirlar muvaffaqiyatli olib borilmoqda.

Xususan, narkotiklarga qarshi kurashish sohasidagi majburiyatlarni samarali amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston tomoni 2023-yilning 18-22-mart kunlari Vena shahrida BMT Giyohvandlik vositalari bo'yicha komissiyasining 67-sessiyasida ishtirok etdi. O'tgan yili esa Parij pakti tashabbusi ishchi guruhlar yig'ilishlarida faol ishtirok etdi. Bundan tashqari, 2023-yil 1-2-sentabr kunlari Samarqand shahrida mazkur tashabbus doirasida giyohvandlik ko'lamini qisqartirish bo'yicha ekspertlar ishchi guruhi konferensiyasi tashkil etildi.

BMT Narkotiklar va jinoyatchilikka qarshi kurash boshqarmasi va Yevropa Ittifoqining xalqaro loyihalari, dasturlari doirasida bojxona va chegara postlarida narkotik moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish bo'yicha idoralararo mexanizmi takomillashtirishga qaratilgan tadbirlar o'tkazildi.

Mamlakatimizda va xorijda huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari malakasini oshirishga qaratilgan amaliy seminar-treninglar tashkil etildi. Xalqaro hamkorlik doirasida mutasaddi vazirlik va tashkilotlarning 530 xodimi giyohvandlikning tarqalishi, narkotrafik va narkotik moddalarga qarshi kurash yo'nalishida o'tkazilgan tadbirlarda ishtirok etdi.

Sintetik giyohvandlik moddalari va kuchli psixotrop moddalarning yangi turlari, ularni sotishning noan'anaviy yo'llari kengayib borayotgan murakkab bir sharoitda yoshlarni zahri qotildan asrash bir tashkilot yoki komissiyaning emas, balki umumjamiyat va jamoatchilik ishi hamdir. Unga faqat hamjihatlik bilangina erishish mumkin.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha davlat komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlangan tadbirlar rejası ijrosi doirasida tashkil etilgan tadbirda mutasaddi idoralar xodimlari, xalqaro tashkilotlar, diplomatik korpus, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

O‘zbekiston giyohvandlik moddalari tarqalishiga qarshi kurashish va giyohvandlik vositalari ustidan nazoratni kuchaytirish sohasidagi xalqaro majburiyatlarni izchil bajarib kelmogda. O‘zbekiston Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Narkotiklarni nazorat qilish milliy markazi ishtirokida mavjud normativ-huquqiy baza xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirilib borilmoqda.

Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi kengayib borishi, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar notibbiy maqsadlarda qo'llanilishi ortishi, opiy va kannabis guruhiga oid hamda yangi metamfetamin sintetik afg'on narkotik moddalari tranzitining yangi kanallari shakllanishi va mavjudlarining faollashuvi ortidan butun dunyoda bo'lgani kabi O‘zbekistonda ham kuzatilyotgan narkovaziyat keskinligicha qolmoqda.

Markaz ma'lumotiga ko'ra, respublika huquqni muhofaza qilish idoralari tomonidan 2023-yil mobaynida giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi bilan bog'liq o'n mingdan ortiq holat aniqlangan. Jumladan, joriy yildagi ko'rsatkich o'tgan yilning mos davridagidan 15,5 foiz ko'paygan.

Giyohvandlik moddalari bilan bog'liq vaziyat tahlili ko'rsatkichi, musodara qilinayotgan narkotiklarning asosiy ulushi ko'knor hissasiga to'g'ri kelmogda. Xususan, o'tgan yilning iyul oyida 8,5 tonnadan ortiq ko'knor, shuningdek, hisobot davrida 23,7 kilogrammdan ortiq afg'on metamfetamini musodara qilingan.



Yurtimizga afg'on narkotiklari, asosan, Tojikiston va Qirg'iziston orqali janubiy sharqdan Samarqand va Sirdaryo viloyatlariga, shimoliy sharqdan Farg'ona vodiysi viloyatlariga va Toshkent viloyatiga hamda to'g'ridan to'g'ri Afg'onistondan Amudaryo daryosi orqali Surxondaryo viloyatiga olib kiritilish kuzatilmoqda.

2023-yilda mamlakatimizda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning noqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatlar sodir etgani uchun 94 holat bo'yicha xorijiy davlatlarning yuzga yaqin fuqarosi ushlangan.

Mamlakatimizda giyohvandlikning oldini olish, unga qarshi kurashish borasida zarur

ijtimoiy tarmoqlaridan foydalangan holda aholi, ayniqsa, yoshlar orasida oson tarqatilyotgani mas'ul davlat tuzilmalarining bu boradagi faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish zarurligini taqozo etmoqda.

Prezidentimizning 2023-yil 11-sentabrda "O‘zbekiston — 2030“ strategiyasi to'g'risida”gi farmonining ustuvor maqsadlariga erishish, shuningdek, yurtimizda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar noqonuniy aylanmasining barvaqt oldini olish, aholida ularni iste'mol qilishga nisbatan immunitet shakllantirish orqali genofondimizga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bartaraf etish galdagi vazifalar sirasidandir.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Yangicha yondashuvlar

Azaldan vohada chorvachilik aholining doimiy mashg'ulotlaridan biri bo'lgan. Xonadonlarda chorva boqlilib, tirikchilik qilingan. Mahsulotlari uchun sut, go'sht, jun va teri mahsulotlari chorvadan olinan.

Chorvachilikni rivojlantirish, xususan, chorva mollari bosh sonini ko'paytirish, naslini yaxshilash hisobiga mahsulodirlikni oshirish, xalqimiz dasturxoniga sifatli hamda arzon go'sht va sut mahsulotlarini uzluksiz yetkazish kabi muhim vazifalar alohida e'tiborda.

Avvallari chorvachilikda uzoq yillik an'analar buzilgan holda eski uslublarda ish olib borilishi, e'tibor qaratilmagani oqibatida sohada samaradorlik ham haminqadar bo'lib qolgan.

Keyingi yillarda aholining go'sht, sut va tuxum mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'laqonli qondirish maqsadida chorva mollari tuyog sonini oshirish, hududlar iqlim sharoitiga mos keladigan zotli chorva mollarni xorijdan bo'lsa-da olib kelish va moslashtirish, xalqimizning oziq-ovqat, xususan, go'sht,

sut va tuxum mahsulotlariga ehtiyojini to'la qondirish borasida tizimli ishlar qilinmoqda. Ayni jarayonlar ifodasini Surxon vohasida ham ko'rish mumkin.

Jumladan, Qiziriq tumanidagi Takiya mahallasida “Surxon goad farm” MCHJ tomonidan echkichilik fermasi va sutni qayta ishlash kompleksi loyihasi ishga tushirildi.

Umumiy qiymati 6 million dollar bo'lgan loyiha doirasida Ispaniyadan sut yo'nalishida boqiladigan zotdor echkilar olib kelinmoqda. Echkilarning yana bir afzalligi tez ko'payadi hamda mahalliy iqlim sharoitiga moslashuvchan.

— Bolalar ozuqasi ishlab chiqarishda echki sutidan foydalaniladi. Echki sutidan quruq sut tayyorlashni maqsad qilganmiz. Shu asosda 12 ming bosh echki olib kelishni rejalashtirganmiz, — deydi “Surxon goad farm” MCHJ rahbari Muxtorjon Imomaliyev.

— Bu echkilar ozuqa tanlamaydi. Suti



yoqqa boy. Boshqa turdagi echkilarning 7 litr sutidan 1 kilogramm yog' olinayotgan bo'lsa, bu echkilar 4 litrdan 1 kilogramm yog' beradi. Yana bir gap. Bizning echkilar bitta

qoramolning 6/1 ozuqasini yeydi. Bir kunda besh litr sut beradi.

Tadbirkorning aytishicha, “mursiana granadina” zotli echkilar ikki yilda uch marta

Dolzarb mavzu

Bugun tejamkorlik haqida ko'p gapirilyotgan bo'lsa-da, amalda ko'pchilik bunga unchalik ham e'tibor qaratayotgani yo'q. Ayrimlar buni soha mutaxassislarining vazifasi desa, boshqasi shunchaki beparvo. Ayniqsa, elektr energiyasini go'yoki tugamas manba bilib bemalol, istagancha foydalanish mumkin, deb o'ylaymiz.

FAQAT SOHA VAKILLARINING VAZIFASI EMAS

Keyingi yillarda elektr energiyasi tanqisligini bartaraf etishga qaratilgan juda katta ishlar qilindi va qilinmoqda. Ammo bu muammoni yengishning asosiy shartlaridan biri — tejamkorlik madaniyati nega tez shakllanmayapti?

Ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yil davomida “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Qashqadaryo hududiy filiali mutaxassislari tomonidan o'tkazilgan nazorat tadbirlari davomida 5434 iste'molchi elektr energiyasidan noqonuniy foydalangani aniqlangan. Elektr ta'minoti korxonalariga 60 milliard so'mdan ortiq zarar keltirilgan. 2024-yilning o'tgan besh oyi davomida esa 2008 kishi o'zboshimchalik bilan foydalanishi natijasida 22 milliard so'mdan ziyod zarar ko'rgan. Natijada huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan qoidabuzar iste'molchilarga nisbatan tegishli choralar qo'llanilgan va jarayon davom etmoqda.

Tizimli ishlar

O'tgan yili Qashqadaryo viloyatida 1077 kilometr yangi elektr tarmoqlari tortildi, 407 ta transformator o'rnatildi, 2974 kilometr tarmoq va 1046 ta transformator ta'mirlanib, 12 ta podstantsiyaning quvvati oshirildi.

Shuningdek, mahallalardagi infratuzilma obyektlarini yaxshilash uchun ajratilgan mablag'ni iqtisod qilish evaziga qo'shimcha 98 obyektida 72 ta transformator o'rnatildi va 161 kilometr elektr tarmog'i tortildi.

Ta'minot yaxshilanishiga muvobiq energiya manbalari o'tilayotgani ham ta'sir ko'rsatayotir. Masalan, Kitob tumanidagi “Qarshi konch sement” xorijiy korxonasi o'zi foydalanayotgan ko'mirdan 6 megavatt elektr energiyasi ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan. Bu korxona iste'mol qilayotgan elektr energiyasining 50 foizini tashkil qiladi.



Quyosh panellari yordamga keladi

Vohada quyosh nuridan elektr olish bo'yicha ham qilinayotgan ishlar ko'zga tashlana boshladi. Misol uchun, o'tgan yili Nishon tumanida Xitoyning “China Gezhouba Group Overseas Investments” kompaniyasi tomonidan quvvati 500 megavatt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasining 300 megavatt quvvati ishga tushirilgan bo'lsa, qolgani joriy yil 1-sentabrga qadar foydalanishga topshiriladi.

Soha mutaxassislari tomonidan 2024-yilda 7,8 milliard kilovatt/soat elektr energiyasi iste'mol qilish va uning kaida 10 foizini iqtisod qilish prognozi berilmoqda.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

bolalaydi. Ikkitadan bola beradi. Issiqqa ham chidamli. Iqlimga moslashuvchan.

— Olib kelinishi ko'zda tutilgan echkilar aholiga tarqatiladi. Xonadonlardan yana sutni o'zimiz qayta sotib olamiz, — deydi Muxtorjon Imomaliyev. — Klaster tartibida ish yuritib, sutni qayta ishlashgacha jarayon o'zimizda bo'ladi. Echkiga yemni ham o'zimiz ishlab chiqarib, tarqatamiz. Hisob-kitobimizga ko'ra, bitta oila beshta echki oladigan bo'lsa, uch yilda eng kam 50 zotdor echki xonadonning o'ziga foyda sifatida qoladi. Uch yil davomida shu oila har bir oyda 50 million so'mlik daromadga ega bo'lib, foyda oladi.

Qiziriqdagi kooperatsiya asosida echkichilikni rivojlantirish loyihasi istiqbolli. Olib kelingan va keltirilishi ko'zda tutilgan 12 ming echki tumandagi 2 ming oilaga beshtadan beriladi.

— Chorvachilik — farovonlik va daromad manbai. Ota-bobolarimiz ham “Sog'in sigiri bor xonadonda doimo baraka, to'kinlik bo'ladi”, deb bejiz aytishmagan, — deydi Qiziriq tumani Saroy mahallasidagi hokim yordamchisi Abdumansur G'afrov. — Chorvachilikni rivojlantirish uchun aqlli va tizimli yondashuv zarur. Ispaniyadan keltirilayotgan zotli echkilar hudud aholisiga tarqatilib, ularning bandligiga va qo'shimcha daromad topishiga zamin yaratmoqda. O'zim ham 18 yildan buyon chorvachilik bilan shug'ullanib kelaman. Bu sohadan yaxshigina daromad olish mumkin.

Keyingi yillarda Surxon vohasida chorvachilik anchagina taraqqiy etmoqda. Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil 1-aprel holatiga vohadagi qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 2 million 574 mingtaga yetgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar soni 57,1 mingtaga yoki 2,3 foiz ko'p degani. Qo'y va echkilar jami bosh sonining 77,7 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelmogda.

Qiziriqdek adirkilarga yondosh hududlarda yashovchilar chorva olinan barakasi ekanini yaxshi biladi. Ko'p yillar davomida chorvachilik bilan shug'ullangan, hovlisida bitta bo'lsa ham sigiri bor ro'zg'orning dasturxonini to'kin, daromadi barakali bo'lishi bugun yana bir bor isbotini topmoqda. Zero, mashaqqatli mehnat, albatta, samara beradi. Prezidentimizning “Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaroriga binoan, sohada qator yangiliklar joriy etilayotgani ham chorvachilik va naschilik yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan xo'jaliklar uchun katta imkoniyatlar yaratilishiga asos bo'lgan.

E'tiborlisi, yaratilgan sharoit va e'tibor ortidan bu soha ham yaxshigina rivoj topib bormoqda.

Sarvar TO'RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



O‘zbekiston tashabbuslari – amalda

EZGULIKNI TARANNUM ETAYOTGAN YURT



Mahmudjon BOLTABOYEV,
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni
rivojlantirish tadqiqotlar markazi
direktori, iqtisodiyot fanlari
doktori, professor

Bunday vaziyatda ezgu tashabbuslarga har qachongidan-da ko‘proq ehtiyoj seziladi. Yangi O‘zbekiston bugun ana shunday tashabbusli mamlakat sifatida dunyoga tanilib ulgirdi. Fikrimizni shu kunlarda yurtimizda bo‘lib o‘tayotgan Jahon yoshlari festivalining asl insoniy maqsadlari, falsafiy mohiyati haqida rivojlantirishga harakat qilamiz.

Avvalo, Prezidentimizning BMT minbaridan turib bildirgan bu tashabbusi dunyo siyosiy va yoshlar hamjamiyatlarini tomonidan qizg‘in qo‘llab-quvvatlangan edi. Buning qator hayoti muhim asoslari bor.

Birinchidan, davlatlararo munosabatlarda o‘zaro ishonchsizlik va murossasizlik kayfiyati avj olayotgan bir sharoitda dunyoda tinchlikni saqlash g‘oyat dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Uzoqdan ko‘rib, bilib turibmiz — bugun ayrim mamlakatlar urush o‘chog‘iga aylangan. U yerda begunoh odamlar, ayniqsa, bolalar va yoshlar, ayollar — tinch aholi qurbon bo‘lmoqda. Bolalar ota-onasi, ota-onalar aziz farzandi jasadini quchib qon qaqshamoqda. Bu ulkan qayg‘uni hech narsa bilan oqlab bo‘lmaydi.

Ikkinchidan, shunday tahlikali bir sharoitda millati, dini va boshqa ijtimoiy mansubligidan qat’i nazar, avvalo, birodarlik va bag‘rikenglik muhitini yaratish zarurati kun sayin hayot-mamot masalasiga aylanmoqda.

Bugun dunyoda keng ko‘lamli silkinishlar davri boshlangan: geosiyosiy diplomatiya tobora keskin tus olmoqda, siyosiy tutamlar o‘zgarib boryapti, davlatlararo munosabatlarda o‘zaro ishonchsizlik ruhi sezilyapti. Shunday tahlikali davrda tinchlikni saqlab qolish, millatlararo munosabatlarda bag‘rikenglik, birdamlik muhitini asrab-avaylash, dunyoviy hamjihatlik kayfiyatini uyg‘otish g‘oyat dolzarb masalalardan biriga aylanayotir.

Uchinchidan, dunyoni asrab qolish, ma’naviyat, madaniyatni, ajdoddardan qolgan insoniy meroslarni saqlash ham kun tartibidagi dolzarb masalalardan bo‘lib turibdi.

To‘rtinchidan, yoshlarning bir-biri bilan insoniylik munosabatlarini mustahkamlash bugunimiz va kelajak hayotimiz uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Mana shu to‘rt omil bugun dunyoni tinch asrab qolish uchun juda muhimdir. Bu yo‘lda esa biz, asosan, yoshlar irodasi va ma’naviy dunyosi qimmatliklariga tayanamiz. Shu o‘rinda yurtimizda o‘tkazilayotgan Jahon yoshlari forumining ahamiyati va bor hikmati bo‘y ko‘rsatadi.

Keyingi yillarda xalqaro miqyosda **“Yangi O‘zbekiston ruhi”** degan tushuncha paydo bo‘ladi. Bu nimadan dalolat beradi?

Avvalo, bugun O‘zbekiston qo‘shni davlatlar va dunyo mamlakatlari bilan bag‘rikenglik, do‘stlik, o‘zaro hamjihatlikda rivojlanish siyosatini yuritayapti. Bir so‘z bilan aytganda,

Hozir bu yangi qiyofaning o‘nlab ifodalari haqida soatlab gapirish mumkin. Biz esa mamlakatimizda birgina yoshlar siyosatiga doir ayrim o‘zgarishlar tahlili qanotida fikrimizni davom ettirmoqchimiz.

Bugun O‘zbekiston tom ma’noda yoshlar mamlakatiga aylangan. Buning zamirida hikmat ko‘p. Yangi ijtimoiy-siyosiy evrilishlar ma’naviy yuksalish qamroviga chiqdi. Bu yo‘lda esa yoshlarga eng muhim tayanch sifatida qaralmoqda.

O‘tgan qisqa davrda yoshlar manfaati ko‘zlangan 100 dan ortiq qonun hujjati qabul qilinib, izchil ijro etilmoqda. Shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda yosh avlodning huquq va manfaatlarini aniq moddalar bilan muhlandi.

“Yoshlar daftari” tizimi yo‘lga qo‘yildi. Pirovardida ko‘plab yoshlarga juda katta moddiy yordamlar ko‘rsatildi, imtiyozli kreditlar ajratildi. Ehtiyojmand oilaga mansub



yangi O‘zbekiston dunyoga ochildi, o‘z navbatida, dunyo ham biz tomon talpinmoqda.

Bu siyosiy evrilish o‘z-o‘zidan sodir bo‘lgani yo‘q. Agar o‘tgan yetti yilda biz erishgan yutuqlar, ichki va tashqi siyosatimizdagi yangilanishlar haqida chuqur mushohada yuritsak, milliy jamiyatimiz ko‘z oldimizda mutlaqo yangi qiyofa kasb etgani namoyon bo‘ladi.

talabalarning o‘qishi uchun kontrakt pullari to‘lab berildi va hokazo.

Oliy ta’lim tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. OTMlarga qamrov darajasi 9 foizdan 42 foizga yetgani zamonaviy ilm va kasb sohalarini egallashda o‘g‘il-qizlarimiz uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Bu yilgi qabul jarayonlari ham yangicha tartibda yo‘lga qo‘yildi.

Oliy ta’lim tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. OTMlarga qamrov darajasi 9 foizdan 42 foizga yetgani zamonaviy ilm va kasb sohalarini egallashda o‘g‘il-qizlarimiz uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Bu yilgi qabul jarayonlari ham yangicha tartibda yo‘lga qo‘yildi.

E’tirof



BOTIR ZOKIROV HAYKALI JAHONNI ZABT ETGAN UMRBOQIY QOSHIQLARGA QO‘YILGANDEK...

Liora AYZENBERG,
AQSHning Garvard
universiteti doktoranti



Biz, amerikaliklar O‘zbekistondagi yangi o‘zgarish va katta islohotlarni ko‘rib, eshitib, juda mamnun bo‘lyapmiz. Prezident Shavkat Mirziyoyev jasorat va matonat bilan O‘zbekistonni dunyoga ochayotgani hamda o‘zbeklarning qalbi kengligi, mehr-muhabbatli va mehmondostligini namoyon etayotgani, eng muhimi, O‘zbekistonga, o‘zbek xalqiga dunyoning nazari va mehri tushayotgani katta tahsinga sazovor.

Amerikada, ayniqsa, o‘zbek san’ati va madaniyatini yaxshi biladigan, qadrlaydigan muxlislar soni yildan yilga ortib borayotganidan biz nihoyatda mamnummiz. Ko‘p kuzataman, o‘zbek san’atkorlari ishtirokida konsertlar, turli bayram tadbirlarida yangraydigan kuy-qo‘shiqlarni amerikaliklar zo‘r mamnumiyat bilan kutib olib, zavq bilan raqslarga tushadi.

O‘zim ham o‘zbek milliy san’ati va an’alarining ashaddiy shaydosiman. Hech esimdan chiqmaydi: bir safar O‘zbekistonga kelganimda Buxoroga sayohatga borib, muntazam o‘tkazib kelinayotgan ipak va ziravorlar festivali ustidan chiqib qoldim va hayratimni yashira olmadim. Bu qadim shaharda xalqning zavol topmas urf-odatlar, boqiy an’analar, ayniqsa, sir-sinoat va sehrga to‘la folklor san’atining asriy sadolarini tinglab hayajonga tushganman. Bir muddat Buxorodan ketgim kelmay qolgan. Shu-shu har gal O‘zbekistonga kelganimda qadim Buxoro, Samarqand, Xiva shaharlariga ham boraman.

Yana bir istagim bor: Xivada navbatdagi “Lazgi” xalqaro raqs festivalida tomoshabin bo‘lib ishtirok etish va albatta “Lazgi”ga raqs tushish. “Lazgi” — juda jozibador, maftunkor raqs. Dunyoda odamga bunchalar zavq-shavq, harorat va hayajon bag‘ishlaydigan raqs bo‘lmasa kerak?!

Bu gal O‘zbekistonga kelganimda yana bir yuksak va ibratli hamda tarixiy tadbir amalga oshirilganidan buniyot xursand bo‘ldim. O‘zbekiston xalq artisti, o‘zbek milliy estrada san’ati asoschisi Botir Zokirovning 85 yilligi katta bayram sifatida keng nishonlangan hamda buyuk san’atkoraga muhtasham haykal o‘rnatilganini eshitib, Toshkentga kelgan kunim darhol uning yodgorligini ziyorat qilib, poyiga gul qo‘ydim.

U o‘zi kuylagan qo‘shiqlariday jozibali, haybatli va g‘urur bilan namoyon bo‘lib turibdi. Go‘yo bu mag‘rur haykal xonandaning jahonni zabt etgan betakror va umrboqiy qo‘shiqlariga qo‘yilgandek edi. Haykal poyiga gullar qo‘yayotgan muxlislarni ko‘rib, ko‘zlarimga yosh keldi. Haykal qo‘yilgan maydonda Botir Zokirov qo‘shiqlari yangrab turibdi.

Hamrohim — Botir Zokirovning ukasi Ravshan Zokirov faxr bilan bunday dedi: — Ushbu haykalling g‘oya muallifi Prezidentimiz bo‘ladi. U jozibador nutq so‘zlab, haykalni ochib berdi. Bu marosim katta tantanaga aylanib ketdi. Go‘yo Botir Zokirov qayta tug‘ildi, hayotga yana qaytdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi...

Bundan buniyot xursand bo‘ldim. Ulug‘ san’atkorning hayoti va ijodini o‘rganayotgan tadqiqotchi sifatida o‘zimi shu san’at bayramida qatnashgandek his qildim, bu ishlarga bevosita daxldorman, deyib faxrlandim.

Men “O‘zbek milliy musiqa va raqs san’atining 1917-1991-yillardagi

rivojlanish bosqichlari” mavzusida doktorlik ilmiy ishi bilan shug‘ullanib kelaman. Ish, asosan, sho‘rolar davridagi o‘zbek milliy san’atiga bo‘lgan e’tibor, yutuq va kamchiliklar, muammolarning keng tahliliga bag‘ishlangan. Tahlil davomida ularni bosqichma-bosqich o‘rganishni maqsad qilib olganman. Ilmiy ishning asosiy — ikkinchi qismi o‘zbek milliy estrada san’ati asoschisi Botir Zokirov hayoti va ijodini qamrab olgan. Uning san’atiga, yuqorida aytganimgdek, Amerikada ham qiziqish juda katta.

Bir muddat o‘zbek, qing‘iz, turkman va tojik tillarini maxsus o‘rgandim. Shu bois, yozuvchi va publistist Ashurali Jo‘rayevning Botir Zokirov hayoti va ijodi haqidagi “Yurak bo‘ronlari” kitobini qiziqish bilan o‘qib, asosiy ma’lumotlarni batafsil bilib oldim. Bu kitobni o‘zim tahsil olayotgan dunyodagi eng nufuzli Garvard universitetining mashhur Vaydener nomidagi kutubxonasidan topdim. Shuningdek, kutubxonada ushbu yozuvchining “Senga ko‘ngil bersam...”, “Tanimading-a...” va “Odil Yoqubov xazinasi” kitoblari ham bor ekan. Bu kitoblarni o‘zbek adabiyoti va san’atiga qiziqadigan talaba va tadqiqotchilar muntazam o‘qib kelayotganini abonent ro‘yxatlarida ko‘rish mumkin.

Ushbu ma’rifat dargohi AQSHdagi katta nufuz va salohiyatga ega ikkinchi yirik kutubxonadir. Fondida 18,9 million jild kitob bilan birga, 4 million nusxa qadimgi va noyob qo‘lyozma, 10 million fotosurat saqlanadi.

Toshkentda Ashurali Jo‘rayevning xonadonida mehmon bo‘ldim. Botir Zokirov haqidagi kitob tarixi va san’atkor ijodi hamda hayoti haqida qizg‘in suhbatlashdik. Ashurali aka menga Botir Zokirovning 85 yilligi munosabati bilan yangidan chop etilgan “Yurak bo‘ronlari” kitobini sovg‘a qildi.

Dastlab qissa o‘laroq nashrdan chiqqan bu kitob hozir to‘ldirilib, ma’rifiy romanga aylanibdi. Shu kunlarda kitobni qiziqish bilan o‘qiyapman. Asarni ingliz tiliga tarjima qilish maqsadiga bor.

Yana bir quvonchli manzaraga guvoh bo‘ldim.

Mehmonga borgan kunim Ashurali akaning uyida nabiralari ham yig‘ilgan ekan. Men ular bilan ingliz, nemis, rus va turkiy tillarda maza qilib gaplashdim. Ularning bilimlarini sinab ko‘rdim, ayrim fanlar bo‘yicha savollar berdim va javoblaridan juda xursand bo‘ldim. Bu ilimga chanqoq, bilimdon, bir qancha tillarni biladigan yoshlarni ko‘rib, yangi O‘zbekiston kelajagi nurli va portloq bo‘lishiga qat’iy ishonchim...

Betakor ovoz sohibi Botir Zokirov kuylagan “Maftun bo‘ldim” qo‘shig‘ini qayta-qayta tinglayman. Bu dilbar va jozibali qo‘shiqni eshitaverib, qalbmida qo‘shiqqa ohangdor so‘zlar mehr bilan quyilib kelaveradi.

Maftun bo‘ldim, maftun bo‘ldim, go‘zal O‘zbekistonga!..

Munosabat

KELAJAK MUTAXASSISLARI muhandislik maktablarida tayyorlanadi



Alisher SAMADOV,
Toshkent davlat texnika
universiteti Olmaliq filiali direktori,
texnika fanlari doktori,
professor

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi texnologiyalar va innovatsiyalarning jadal rivojlanishi bilan bog‘liq global muammolar yechimini topishga qaratilgan. Globallashtan bugungi murakkab davrda barcha davlatlar o‘z ichki resurslariga tayanib, masalaning innovatsion yechimiga e’tibor qaratmoqda.

Bugungi kunda muayyan sohaning talablariga yo‘naltirilgan zamonaviy ta’lim, ilg‘or uskunalar ega laboratoriyalar va, eng muhimi, o‘z ishiga ishtiyoqi baland yoshlarning salohiyatiga asoslangan muhandislik maktablari masalaning yechimi sifatida kun tartibiga qo‘yilgan. Milliy iqtisodiyot oldida turgan ustuvor vazifalar va sanoat sheriklari bilan o‘zaro aloqalar muhandislik maktablarida ta’limning yangi turi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Yig‘ilishda davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “tarmoq — korxona — oliygoh” tizimi asosida har bir oliygoh birlashtirilgan sanoat hamkori bilan dual ta’lim orqali amaliy ko‘nikmalar oladi hamda korxonalarda tashkil etiladigan kafedralarda ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradi.

Korxonalarining asosiy vazifasi yangi turdagi kadrlar tayyorlash uchun zarur shart-

Davlatimiz rahbari ishtirokida muhandislik kadrlarini tayyorlash tizimidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ilm-fan va texnologiyalarning eng so‘nggi yutuqlaridan boxabar bo‘lgan, zamonaviy muhandislik texnologiyalariga doir bilimlarni egallagan, tizimli va ijodiy fikrlash ko‘nikmasiga ega yuqori malakali muhandislarni maqsadli tayyorlash masalasi ko‘rib chiqildi.

sharoitlarni yaratishdir. O‘quv dasturlarida amaliy komponentlarning katta qismi: amaliyotlar, stajirovkalar, darsdan tashqari loyihalar, muammolarning raqamli yechimlari, zamonaviy tadqiqotlar olib borishda mavjud texnologik uskunalar faol foydalanish hisobiga talabalar va tadqiqotchilar ma’ruzalarni va seminar matnlarini kamroq yozadi, amaliy ko‘nikmalarni ko‘proq egallaydi. Ta’lim faoliyatini tashkil etishda oliy ta’lim muassasasi uchta asosiy tamoyilga asoslangan bo‘ladi. Birinchisi, barcha ta’lim dasturlari sanoat sheriklari bilan birgalikda amalga oshiriladi. Ikkinchisi, har bir ta’lim dasturi korxonada ish bilan ta’minlashga qaratilgan bo‘ladi va uchinchi tamoyil — eng muhimi, ta’lim va ishdagi innovatsion, qiziqarli loyihalar orqali yetuk mutaxassislar jalb qilinadi. Bugun yaqin kelajakda ta’lim ishlab chiqarishning ajralmas qismiga aylanishi xususida so‘z bormoqda.

Tezkor texnologik rivojlanish davrida yangi texnika va texnologiyalarni yaratada oladigan

muhandislar tayyorlash juda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon nafaqat mamlakatning iqtisodiy va texnologik rivojlanishiga hissa qo‘shadi, balki global raqobatbardoshlikni oshiradi. Quyida bu muhim vazifaning ba’zi jihatlarini ko‘rib chiqamiz.

Ta’lim dasturlarini yangi talablarga moslashtirish zarurati

Texnologiyatezkorsur’atlarda rivojlanayotgan bir paytda ta’lim dasturlarining ham ushbu o‘zgarishlarga moslashuvi muhimdir. Shu sababli muhandislik oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy va kelajak texnologiyalariga yo‘naltirilgan kurslarni joriy etish kerak. Bular sun’iy intellekt va robototexnika: ushbu sohalar hozirgi va kelajakdagi ko‘plab texnologik yangiliklarning asosi hisoblanadi.



Inson qadri uchun

Ziyolilarni
BIRLASHTIRUVCHI OMIL

Tarix, o'tmish guvoh: o'zbek va qoraqalpog' xalqlari o'rtasida tug'ishganlik, og'izburchilik, or-nomus, vijdon birligi doim muqaddas sanalib, qadrlab kelingan. O'zbekiston Qahramoni Ibroyim Yusupov bu haqda "Tug'ishganlik" she'rida yozadi:

Or-nomus, vijdoni sherik,
Moli bilan joni sherik,
Tomirdagi qoni sherik,
Qon-qardosh so'z tug'ishganlik.



Tatlimurat ATAMURATOV,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat
markazi Qoraqalpog'iston bo'limi
rahbari, O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan yoshlar murabbiysi

O'zbek va qoraqalpog' — ikki tili bir el. Asrlar davomida birga yashab, do'st, qarindosh bo'lib, bir xalqqa aylanib ketgan. Ular bugun mamlakatimiz tinchligi va taraqqiyoti yo'lida hamjihat bo'lib mehnat qilmoqda. Zero, bugun yangilanayotgan O'zbekistondagi har bir o'zgarish Qoraqalpog'istonning iqtisodiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarida ham aks etib turibdi.

Shavkat Mirziyoyev Prezidentlikka saylanganidan keyin qo'shni davlatlar bilan chegaralar ochilib, madaniy va savdo-iqtisodiy aloqalar yo'lga qo'yildi. "Madaniyat va adabiyot kunlari"ni o'tkazish an'anaga aylandi. Toshkent shahridagi "Xalqlar do'stligi" saroyi va maydoni nomlari tiklandi. Shuningdek, qoraqalpog' xalqining ulug' donishmand shoiri Berdaq Qarg'aboy o'g'lining byusti Toshkent shahri Nukus ko'chasidagi o'rni o'rnatildi. Shoirlar xiyoboniga Berdaq, Ajiniyoz, O'zbekiston Qahramonlari — To'lepbergen Qayipberganov, Ibroyim Yusupov haykallari o'rnatildi. Ikki xalqning o'zaro asriy hamjihatligi hamda do'stligining yorqin timsoli bo'lib qoldi.



Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2019-yil avgustda Bo'zator tumani qayta tashkil etildi. Bugun tumanda ko'plab madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilmoqda. Baxshichilik, estrada, opera hamda dasturiy yo'nalishda to'rt bosqichli "Bo'zator fest" respublika tanlovi bo'lib o'tyapti. Bu yilgi festival g'oliblarini taqdirlashga 2,5 milliard so'm ajratildi.

2003-yili Mo'ynoq tumanida 28,5 mingdan ziyod kishi yashardi. Bugun ular soni 33,5 mingni tashkil qilyapti. Orol dengizi qurishi bilan tabiatdagi muvozanat buzilgan joy ayni damda sayyohlar maskaniga aylanmoqda. Tumanda 13 ta madaniy meros obyekti mavjud. 2023-2024-yillarda hududda 393 milliard 928 million so'mlik 23 ta loyihani amalga oshirish hamda 983 ta yangi ish o'rni yaratish rejalashtirilgan.



Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qoraqalpog'iston filiali tomonidan "Ma'naviyat boshqa sohalardan o'n qadam oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak!" degan ezu da'vat asosida "Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun!", "Mahallada duv-duv gap" loyihalari, madaniy-ma'rifiy tadbirlar, amaliy seminar va uchrashuvlar, ilmiy konferensiyalar, kitob aksiyalari, ma'rifat soatlari o'tkazib kelinmoqda.

Joriy yil 20-avgustda Prezidentimizning Nukus shahrida tadbirkorlar bilan uchrashuvini o'tkazish rejalashtirilgan. Bu tadbirdan asosiy

maqsad Qoraqalpog'istonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholiga ish o'rnlari yaratish, yalpi ichki mahsulotlar hajmini oshirish, eng asosiysi, xalqni rozi qilishdir.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining o'tgan yil 22-dekabrda kengaytirilgan yig'ilishida davlatimiz rahbari soha xodimlari oldiga katta



Ijobiy ishlar bilan birga, hududda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, samaradorligini oshirishga to'sqinlik qilayotgan muammo va kamchiliklar yo'q emas, albatta. Shuning uchun Respublika Ma'naviyat-ma'rifati markazi tomonidan ishchi guruh tuzilib, barcha hudud bo'ylab ma'naviy-ma'rifiy ishlar holati o'rganib borilmoqda. O'rganish natijasi bo'yicha tahliliy-tanqidiy yig'ilish o'tkazildi, muammolar o'rtaga tashlanib, yechim va takliflar berildi.

Bugun har qanday sohada rivojlanish, yangilanish bo'lishi uchun tanqid, tahlil, takliflar zarur, albatta. O'rganish natijasida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf qilish yuzasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengisi raisi bilan qo'shma bayonnoma asosida "yo'l xaritasi" imzolashga kelishib olindi.

Hozir barchamizni o'ylan-tiradigan savollar, yechim qidirishimiz kerak bo'lgan holatlar ko'p. Birgina dunyo miqyosida kuzatilayotgan ishonch inqirozi, g'oyalari kurashi qurboni yosh avlod vakillari bo'ladi. Negaki oqni qoradan, yaxshini yomondan ajrata olmaydigan murg'ak qablarni boshqarish oson, ulardan yovuz maqsadlar yo'lida foydalanish imkon bor. Shu sababli bugun har bir mahalla, ota-ona, maktab, ta'lim maskanlari — barcha birlashib, yoshlarimizni asrashni zamon talab qilmoqda. Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universitetida bo'lib o'tgan ziyolilar bilan muloqotda ham shu masalaga e'tibor qaratildi.

Bugun ikki xalq ziyolilari zimmasiga katta mas'uliyat yuklangan. Xo'sh, yoshlarimizni tarbiyalashda nimalarga ahamiyat berishimiz kerak? Bu bo'yicha aniq yo'riqnomamiz bormi, unda nimalar aks etishi lozim? Markazda olimlar, ekspertlar guruhi tashkil qilinib, faoliyat uchun zarur metodik yo'riqnomalar ishlab chiqilmoqda. Bundan tashqari, zamonaviy platforma yaratilyapti.

Ma'naviyatning chegarasi, qamrovi va o'Ichami bo'lmaydi. Xoh u iqtisodiyot tarmog'i, xoh ishlab chiqarish bo'lsin, ma'naviyat nafari kirib bormagan joyda, albatta, muhit, tarbiya, qadriyat, madaniyat shakllanmaydi. Prezidentimiz topshirig'iga asosan, mam-lakatimizda ilk marotaba "Surxondaryo tajribasi" misolida Ma'naviyat sektori tashkil etilmoqda.

Bugun nafaqat tarbiyachi, balki u foydalanayotgan barcha usul, shakllar ham davr ruhiga mos bo'lishi lozim. Shu ma'noda Respublika Ma'naviyat va ma'rifati markazi tomonidan yangicha ko'rinishdagi videoqo'llanmalar, multimedia studiyasi, tarbiyachilar uchun onlayn darslar, bitta platformaga yig'ilgan targ'ibot senariylari nafaqat sohani tizimlashtirish, balki unga yangi qiyofa berish ham katta hissa qo'shadi.

Prezidentimiz qoraqalpog' elini yaxshi ko'rib, e'zozlaydi. Shu sabab "Bag'rikeng, tanti, qiyinchiliklarni mardona yengib o'tadigan qoraqalpog' xalqini yuragimdan e'zozlayman va mehr bilan aytamanki, men nafaqat O'zbekiston farzandiman, balki men g'urur bilan qoraqalpog' farzandiman", degan edi.

Bunday mehr-muhabbatga javoban bugun hududda ma'naviy-ma'rifiy ishlar, albatta, yangilanish sari yuz borgan. Jamiatimiz va millatimiz taraqqiyotida milliy ma'naviyatimizning o'rni beqiyos. Biz, ziyolilarni vatan mehri, yurt taraqqiyoti, yoshlar kamoli, yangi ijodiy muvaffaqiyat va fidokorlik birlashtiradi.

Tahririyatga maktub

MENING BOBOM

Men bobom bilan buvimning to'ng'ich nabirasiman. Ular meni yeri ko'kka ishonmay, avaylab-asrab ulg'aytirdi. Ayniqsa, bobomning mehri boshqacha. Uy-ro'zg'or, tomorqa, chorva, parranda, asalariga qarash yumushlaridan ortib, yurakdan suhbatlashishga doimo vaqt topadi. Bobomning tunlari ijod qilishiga havasim keladi. Ulg'aysam, u kabi inson bo'laman, deb o'zimga o'zim so'z berganman.



jurnalists

Dildora NE'MATJONOVA,
Namangan davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi

Yana bobomning ota-ona, aka-singil, qarindosh-urug', qo'ni-qo'shnilarga munosabati yoqadi. Har kuni tongda ota hovliga kelib, padari buzrukvori va validasidan ular hayotligida duo olmasdan ishg ketmas edi. Yaqinlari og'rib qolsa, har qanday holatda ham shifokorga ko'rsatib, davolanishi uchun qayg'urishdan erinmaydi. To'y-ma'rakalarga bosh-qosh bo'lishni eng muhim yumushlaridan biri, deb hisoblaydi.

Kashiga shunchalik mehr qo'yganki, kerak bo'lsa jamoasi, tashkilotdagi

ishlab, ko'pchilikka tanilgan. Haqqul-obod shahridagi qarorvaz masjid o'rnida poytaxtdagi "Shahidlar xotirasi" muzeyi andazasi asosida ma'naviyat maskanini barpo etishda ham fidoyilik qilgani haqida ko'p eshitganman.

Do'mar mahallasida yashovchi hamkasbi Valijon To'ychievning aytishicha, davr taqozosi bilan xo'jaliklar, MMTPlarga vakil sifatida yuborilganda ham sidqidildan ishlagan. Hatto bir muddat A'zamjon Shamsiddinov nomidagi jamoa xo'jaligiga raislik qilgan. Tumanning sobiq hokimi O'ktamjon Ergashev Norinning bugungi rivojida ko'plab fidoyi insonlar qatori bobomning ham munosib hissasi borligini ko'p ta'kidlaydi.

— Ayniqsa, tomorqalardan unumli foydalanish bo'yicha targ'ibot ishlari, amaliy seminarlar o'tkazishda, ko'p ming nusxadagi "Izlaganga imkon ko'p" tavsiyaviy kitobi tayyorlanib, tarqatilishda faol qatnashgani tahsinga loyiq. Buning ortida

Men ko'plab she'r, qo'shiqlar ijodkori, taniqli jurnalist, shoir, publitsist, targ'ibotchi, mehnatkash va mehrbon inson, "El-yurt hurmati" ordeni sohibi, bobom Ravshanbek Mirzaolimov bilan faxrlanaman. Barcha ustozlarni kasb bayrami bilan muborakbod etaman.

muammolarni hal qilish uchun bilim, kuch-g'ayratni aslo ayamaydi.

Bizga aytishicha, yoshligida yuqori tashkilotlarda ishlashga ko'p bora taklif etilganiga qaramay, uzoqqa ketishni xohlamagan. Eng avvalo, ota-onasining duosini olishni, kindik qoni to'kilgan joyda qolishni afzal ko'rgan.

Norin tumani sobiq partiya qo'mitasida, viloyat teleradiokompaniyasida ham tashkilotchiligi, serqirra ijodkorligini namoyon qilgan. Nihoyat tuman gazetasiga muharrir bo'lgan. Eshittirish, ko'rsatuvlari, maqolalari respublika tanlovlarida yuqori baholangan.

Men hozir amaliyot o'tayotgan gazeta bida boqlar respublika darajasida tanilishda vaqtning hissasi katta. Unga "Norin ovozi" deb nom berilishi, har hafta 8 sahifada chop etilishi, mamlakat miqyosidagi tanlovlarda g'olib nashrlar qatoridan o'rin olishi 15 yil mobaynida muharrir bo'lgan bobom va ahil jamoa a'zolarining zahmatli mehnati samarasi, albatta. Bobom men muharrirman deb qo'l qovushtirib o'tirmagan. Ishidan ajralmagan holda viloyat televideniyesining tumandagi muxbiri, hokimning ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha kotibi sifatida

hozir qishloqlarimizda sholg'om, kartoshka, bulg'or qalampir, karam, qulupnay, pomidor yetishtirishga ixtisoslashgan mahallalar shakllandi, — deydi O'ktamjon aka.

Bobom viloyat matbuot boshqarmasi boshlig'i, "Qishloq hayoti" gazetasining viloyatdagi muxbiri vazifasida ham halol va barakali mehnat qildi. Xalqimiz uchun og'ir, sinovlar yili bo'lgan koronavirus pandemiyasi davrida Respublika sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining viloyat boshqarmasida axborot xizmati rahbari sifatida fidoyilik ko'rsatib ishladi. Hamkasblarining aytishicha, qo'mitaning yaqinda o'tkazilgan selektor yig'ilishida rais o'rinbosari bobomning ibratli faoliyatini boshqarlarga namuna qilib ko'rsatibdi.

Men ko'plab she'r, qo'shiqlar ijodkori, taniqli jurnalist, shoir, publitsist, targ'ibotchi, mehnatkash va mehrbon inson, "El-yurt hurmati" ordeni sohibi, bobom Ravshanbek Mirzaolimov bilan faxrlanaman. Barcha ustozlarni kasb bayrami bilan muborakbod etaman. Ijodiga yanada barkamollik, mustahkam sog'liq tilayman. Kelajakda bobomga o'xshab adabiyotga mehr qo'ygan filolog va serqirra ijodkor bo'lish orzumdird.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalar tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "Kolopak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2205.
44065 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolopak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Muxtasar Tojimatova
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzili: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'ZA yakuni — 23:15 Topshirildi — 01:15